

Namangan - Orenburg - Namangan yo'nalishi bo'yicha aviaqatnovlar qayta tiklanmoqda

2022 11 Noyabr

2022-yil 24-noyabridan boshlab Uzbekistan Airways aviakompaniyasi Namangandan Orenburgga qatnovlarni tiklamoqda. Namangan - Orenburg - Namangan yo'nalishida parvozlari haftaning payshanba kunlari quyidagi jadvalga muvofiq amalga oshiriladi (mahalliy vaqt):

Namangandan uchish: 21:25

Orenburgga yetib borish: 00:30

Orenburgdan uchish: 02:30

Namanganga yetib borish: 05:20

Namangan - Orenburg yo'nalishi bo'yicha aviachiptalar narxi 1 692 963 so'mdan, Namangan - Orenburg - Namangan yo'nalishi bo'yicha aviachiptalar narxi esa 3 038 081 so'mdan boshlanadi. Narxlar 11.11.22y. holatiga ko'ra amal qiladi.

Aviachiptalarni Uzbekistan Airways Sales filialida, aviakompaniya agentlaridan yoki www.uzairways.com rasmiy saytidan 3% chegirma bilan xarid qilib olishingiz mumkin.